



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AJRATILGAN INVESTITSION KREDITLARNING AHAMIYATI

Xikmatullayev Olimxon Asatulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida banklarning investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari, uslublari yoritilgan bo'lib, bunda tijorat banklarining investitsion portfelini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy investitsion holati tahlili hamda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar tahlili bayoni keltirilgan.

Shuningdek, tijorat banklari investitsion resurslarini boshqarishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari va tijorat banklarining investitsion faolligini hamda samaradorligini oshirish yo'nalishlari, shuningdek tijorat banklarining investitsiya sohasidagi munosabatlarni samarali tashkil qilish to'g'risida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya faoliyati, hududiy investitsiya, kredit, investitsion resurslar, investitsion faollik, investitsiya samaradorligi, bankning investitsiyoyn siyosati, investitsion muhit va davlat siyosati.

Abstract: This article describes the ways and methods of increasing the efficiency of investment activities of banks in the economy of Uzbekistan, including the specific features of the formation of the investment portfolio of commercial banks, the analysis of the international and national investment situation of the Republic of Uzbekistan, and the analysis of loans allocated by commercial banks. statement is given. Also, the existing problems in the management of investment resources of commercial banks and ways to eliminate them, directions for increasing the investment activity and efficiency of



commercial banks, as well as opinions on the effective organization of relations in the investment field of commercial banks are highlighted.

Key words: commercial banks, investment activity, regional investment, credit, investment resources, investment activity, investment efficiency, bank's investment policy, investment environment and state policy.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'biyki, shu asosda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib keladi. Pirovardida davlat banklari ulushi bosqichma-bosqich kamayib boradi va sohada raqobat muhitini yaxshilash, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini, ayniqsa, ularning investitsion aktivligini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda yuqori investitsion kreditlash jarayonining kuzatilishi natijasida, jami kreditlarning YaIMga nisbati Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarining mediana ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori shakllandi. Xususan, 2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha ushbu ko'rsatkich 44 foizni tashkil etib, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo'yicha 75 prosentni chegarasiga yaqinlashdi.

O'zbekistonda kreditlash hajmining yuqori o'sish sur'ati va YaIM o'sish sur'atlarining deyarli bir maromda shakllanishi, mamlakatda ushbu ko'rsatkichning o'zgarishsiz qolishiga sabab bo'lgan.

1-jadval ma'luotlaridan xulosa qilishimiz mumkin, davlatning xalqaro investitsion pozitsiyasining aniqlashda deyarli barcha turdagi iqtisodiy sub'ektlar ishtirok etadi. Lekin shu bilan birga aytish mumkin, bank tizimi va deyarli barcha tijorat banklari bevosita yoki bilvosita investitsion jarayonlarda aktiv yoki passiv shaklda ishtiroq etadi. Aktiv shaklda deganimizda ishtiroqchilar o'z mablag'larini investitsion ob'ektlariga foyda olish maqsadida kiritishini hamda passiv shaklda deganimizda, investitsion moliyaviy instrumentlar yoki to'g'giradan-to'g'ri kelishuv shaklida o'ziga majburiyatlarni olishini



nazarda tutadi. Shu bilan birga belgilab o'tishimiz mumkin, ushbu barcha investitsion moliyaviy munosabat va operatsiyalar (aktiv va passiv) tijorat banklar orqali amalga oshiriladi.

1-jadval

O'zbekistonning 2021-2023 yillarda xalqaro investitsion pozitsiya¹ (mln. doll.)

Umumiy aktivlar, undan:	70 404,0	82 293,7	81 535,9
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	197,7	202,0	208,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	29,8	31,6	36,0
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	29,8	31,6	36,0
Qarz instrumentlari	167,9	170,3	172,2
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,5	2,5
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	165,4	167,9	169,7
Portfel investitsiyalar	2,5	2,5	2,6
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,5	2,5	2,6
Boshqa investitsiyalar	35 064,6	46 321,7	50 285,8
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	1,2	1,6	2,0
Qarz instrumentlari	35 063,4	46 320,1	50 283,8
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	2 935,4	4 556,9	3 612,9

¹ <https://stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.



Davlat boshqaruvi sektori	3,3	3,7	7,4
Boshqa sektorlar	32 124,7	41 759,5	46 663,5
Zaxira aktivlari	35 139,2	35 767,5	31 039,3
Monetar oltin	20 949,7	23 064,8	23 095,5
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	14 189,5	12 702,7	7 943,8
Umumiy majburiyatlar	53 586,0	63 407,2	67 351,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	11 594,1	13 652,4	13 967,5
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	10 054,1	11 361,2	11 461,7
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	10 054,1	11 361,2	11 461,7
Qarz instrumentlari	1 540,0	2 291,2	2 505,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	1 376,7	2 024,0	2 302,8
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	163,3	267,2	202,9
Portfel investitsiyalar	4 720,4	4 192,1	4 266,1
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	83,5	105,8	117,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	37,1	48,4	53,6
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	46,4	57,4	64,1
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,9	1,3	1,5



Qarz qimmatli qog'ozlari	4 636,9	4 086,3	4 148,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozittashkilotlari	993,2	893,9	1 028,3
Davlat boshqaruvi sektori	2 669,2	2 375,0	2 272,7
Boshqa sektorlar	974,5	817,3	847,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin- valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari	11,5	2,0	0,2
Boshqa investitsiyalar	37 259,9	45 560,8	49 117,8
Boshqa qarz instrumentlari	37 259,9	45 560,8	49 117,8
Markaziy bankdan boshqa depozittashkilotlari	6 766,0	10 441,4	11 041,2
Davlat boshqaruvi sektori	15 290,6	18 007,8	18 673,8
Boshqa sektorlar	15 203,2	17 111,7	19 402,8
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	72,2	105,0	118,3
Sof xalqaro investitsion pozitsiya	16 818,1	18 886,5	14 184,3

Jadvalda keltirib o'tilgan umumiy aktiv va umumiy passiv bo'yicha keltirib o'tilgan deyarli barcha moddalarda banklar investor sifatida aktivlarda ishtiroq etilishi mumkin, lekin banklarning u yoki bu moddadagi ishtiroqini aniq belgilab beruvchi statistika topilmadi. Shu bois, ushbu xalqaro investision pozitsiyasini ko'rsatish orqali qay darajada investisiyani amalga oshirilishi eki undan foydalanish darajasini ko'rsatib beradi.

Hisobot davrida mamlakatga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning kapitaldagi sof o'sishi 855 mln. dollarni, bosh kompaniyalardan olingan qarzlar bo'yicha majburiyatlarning sof o'sishi 289 mln. dollarni tashkil qildi. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) doirasida investisiyalarning sof kamayishi 359 mln. dollarga teng bo'ldi.




2023 yilning 9 oyida portfel investisiyalar manfiy saldosi nomoliyaviy tashkilotlar kapitaliga xorijiy portfel investisiyalarning jalb qilinishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, tijorat banklari va boshqa korxonalar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligasiyalari uchun hisoblangan foizlar hamda “yashil” evrobondlar hisobiga 129 mln. dollar miqdorida shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasining sof investision pozitsiyasi ko‘rsatkichi 2023 yil 1 oktyabr holatiga 14,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 81,5 mlrd. dollarga, tashqi majburiyatlarining hajmi esa 67,3 mlrd. dollarga teng bo‘ldi.

Joriy yilning 9 oyi davomida banklar tomonidan 184 trln so‘m miqdorida yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30 foizga ko‘p kreditlar ajratilgan. Mazkur kreditlarning 59 foizi (109 trln so‘m) korporativ va 41 foizi (75 trln so‘m) aholiga ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yillar davomida ko‘rish mumkin tijorat banklarning kapitali, aktivlari, kreditlari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib kelmoqda. Bu ko‘rsatkichlarning o‘shish tendensiyasi bankning investision imkoniyatini va investision faoliyatini natijalarini oshirishga xizmat qilmoqda. Birgina, tijorat banklar aktivlarini hajmini o‘shish tendensiyasini tahlil etadigan bo‘lsak, u ijobiy o‘shish tendensiyasiga ega va ushbu tendensiyaning pastda keltirilgan diagramma orqali ko‘rish mumkin.






1-rasm. 2020-2023 yillar davomida tijorat banklarning aktivlarini o'sish tendensiyasi² (mlrd. so'm)

Yuqorida keltirilgan rasm orqali ko'rish mumkin, 2023 yil natijalarini 2020 yil natijalari bilan solishtirganimizda tijorat banklarning aktivlari 2,4 marotaba oshganiga guvoh bo'lamiz.

Tahlilning keyingi qismiga, aniqrogi asosiy tahlilga o'tamiz, ya'ni O'zbekiston respublika tijorat banklari tomonidan qilingan investision faoliyatiga baho beriladi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan taqdim etilgan jamlanma balansning statistik raqamlariga murojaat etiladi. Raqamlar tahlili shuni ko'rsatmoqda, tijorat banklarning investision faoliyatini natijalari o'sish tendensiyasiga ega. Ushbu tendensiya sur'atlarini pastda keltirilgan diagramma orqali qo'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan 2020 yildan 1 aprel 2024 yil davrigacha bo'lgan muddatda investisiya va qimmatli qog'ozlarga kiritilgan resurslarining summasi o'sish tendensiyasiga ega va ushbu davr mobaynida deyarli 12 martaga yaqin oshganligini qo'rish mumkin. Aktivlar strukturasidagi ulushi nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich ham ijobiy o'sish tendensiyasiga ega. Tijorat banklarning investisiya va qimmatli qog'ozlarga kiritilgan mablag'larning ulushini o'zgarishi 4,4 punktni tashkil qilgan.



² <https://stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.



8-rasm. Tijorat banklarining investisiya va qimmatli qog'ozlarga kiritilgan mablag'lar hajmi va uning aktivdagi ulushi³ (mlrd so'm).

Tijorat banklarning investisiyaga yo'naltirilgan resurslarning hajmini o'sish darajasi bankning aktivlarini o'sish darajasidan 4-5 marta ko'proq. Bu holat, tijorat banklarning mamlakatimizning investision siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroqi faollashgandan dalolat beradi.

Samaradorlik nuqtai nazarda investision faoliyatni baholaydigan bo'lsak, son va sifat ko'rsatkichlar o'rtasila mutanosib o'sish tendensiyasi kuzatilmagan, ya'ni absalyut ko'rinishda investision summa 12 marta oshgan, lekin ulushni o'zgarishi nuqtai nazardan 4,4 punkdga, yoki ulushning o'sish darajasi 4,7 martani tashkil qilgan. Bu erda xulosa qilishimiz mumkin, tijorat banklarning investision faoliyatini yanada faollashtirish va aktiv strukturasida salmoqli ulushga ega bo'lish maqsadga muvofiq. Bu mikroekonomika nuqtai nazaridan investsion daromadlarni oshishiga va makroekonomika darajasida mamlakatimizning YaIMini va boshqa ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari o'z pozitsiyalarini faol rivojlantirish, bozordagi ko'plab raqobatchilar orasida etakchilik qilishiga imkon beruvchi so'nggi axborot tizimlari va xavfsiz dasturiy mahsulotlardan foydalanib, daromadlari tarkibidagi ulushni oshirib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Umuman, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida faol operasialari bilan shug'ullanadi, biroq ular qimmatli qog'ozlar investisiyalari bilan bog'liq risklarni ancha yuqori baholangan. Shunday qilib, ommaviy qimmatli qog'ozlar tahlili tijorat banklarining birjaviy obligasiyalar emitentlari sifatidagi muhim faoliyatini va banklarning qimmatli qog'ozlarining ommaviy muomalasidagi juda kichik ulushini ochib beradi. Qimmatli qog'ozlar tanlovi va ularni investision portfelga kiritishda hal qiluvchi mezonlar sifatida qimmatli qog'ozlarning muomaladagi muddati, Markaziy bankning aniq bir emitent bo'yicha REPO operasialari

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistikasi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



bo'yicha diskont va amaldagi investisiya siyosatiga muvofiq aniqlangan risklar olinishi lozim deb hisoblaydi. Zamonaviy sharoitda nominal daromadlilik sezilarli darajada yo'l o'ynamaydi, chunki hisob-kitob qilingan riskni miqdorini to'liq hisobga olish imkoniyatiga ega emas. Keltirib o'tilgan omillarni hisobga olish banklarga minimal risklar sharoitida maksimal daromad olish imkoniyatini beruvchi va joriy investisiya siyosat talablariga javob beruvchi, optimal investision va savdo portfellarini shakllantirishni ta'minlovchi moliyaviy instrumentlarni samarali mexanizmlarini tanloviga tayanadi. Birinchi navbatda, bank tizimining ishonchliligini, real iqtisodiyotda barqaror investisiya tushumini ta'minlash, yuzaga kelgan moliyaviy inqirozdan chiqish va kelgusida barqaror rivojlanish imkoniyatini beradi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, tijorat banklariga fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish huquqi berilgan bo'lsa-da, banklarning faolligi etarli emas. Bunda banklar investisiyalar instrumentlari sifatida nisbatan risksiz bo'lgan davlat obligasiyalarini afzal hisoblashadi va investisiya portfelida ulushli qimmatli qog'ozlari sezilarli qisqargan. Sho'ba va filiallarga qo'yilmalar hajmini o'sish tendensiyasi mahalliy fond bozorining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi hamda uning kapitallashuvi va likvidligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Mazkur yo'nalishda tartibga solish siyosatida tijorat banklarining mahalliy qimmatli qog'ozlar bozoriga samarali investisiyasini rag'batlantirishni e'tiborga qaratilishi shuningdek, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabini qondirish mumkin bo'lgan yangi emitentlarni uyushgan bozorga chiqishini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar majmuini ham qamrab olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoev. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi – stat.uz
3. Khudoyberdiev M.U. Increasing the investment activity of commercial banks in the implementation of innovative technologies. Proceeding of International Conference on Scientific Endeavors and opportunities Hosted from Telavi, Georgia on 17th -18th March, 2021 www.econferenceglobe.com.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma’lumotlari. www.cbu.uz